



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 318,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 4,1 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 365,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 29,9 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 953,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 84,2 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 99,0 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 40,0 %) tashkil etdi.


Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Uyushmagan savdo, mln. so'm



UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 318,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 95,9 % ni tashkil etdi.



Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga 84,2 % va yirik korxonalar hissasiga 4,3 % to'g'ri keldi.


ENG YUQORI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri 36,4 % ulush bilan 845,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Shirin shahar 1,4 % ulush bilan 31,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik subyektlari
2019-yil yanvar-avgust	2019-yil yanvar-avgust
2020-yil yanvar-avgust	2020-yil yanvar-avgust

Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiyy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, 1 953,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 8,6 % ga pasaygan . Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 84,2 % ni tashkil etdi.


Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Shirin sh (99,3 %), Oqoltin (99,1 %), Xovos (99,0 %), Sardoba (98,4 %) tumanlarida yuqori bo'lgan.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan Viloyatning barcha shahar va tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Guliston sh (100,7 %), Sirdaryo (97,1 %) tumanlari va Yangiyer (92,4 %) shahrida qayd etildi.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda





	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	1 318,5	95,9	365,2	129,9	1 953,3	91,4
Guliston sh.	845,1	100,7	282,9	123,2	562,1	92,3
Shirin sh.	31,9	86,0	0,2	89,9	31,7	86,0
Yangiyer sh.	190,4	92,4	14,2	91,8	176,2	92,4
Boyovut	103,0	92,6	3,2	185,2	99,8	91,1
Guliston	64,9	89,1	1,8	78,1	63,0	89,5
Mirzaobod	179,1	96,4	35,9	510,6	143,2	80,1
Oqoltin	151,4	90,3	1,3	54,1	150,1	90,9
Sardoba	85,5	86,3	1,4	62,0	84,1	86,9
Sayxunobod	70,4	90,1	2,3	71,7	68,1	90,9
Sirdaryo	525,5	97,1	21,1	131,7	504,4	96,0
Xovos	71,3	90,1	0,7	146,3	70,6	89,8

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 29,9 % ga o'sdi va 365,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 4,3 % ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 953,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 8,6 % ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 84,2 % ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin shahri (99,3 %), Oqoltin (99,1 %), Xovos (99,0 %), Sardoba (98,4 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 15,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Guliston shahri (33,5 %) Mirzaobod (20,0 %), Yangiyer shahrida (7,5 %) kuzatildi.



**SIRDARYO VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA
NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 728,6 ming so'm (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 5,9 % ga kamaydi) va Sardoba tumani (84,7 %) hamda Sayxunobod tumani (88,6 %), Guliston (86,9 %), Boyovut (91,0 %), Xovos (88,5 %), Oqoltin (88,4 %), tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Guliston shahri (9 286,5 ming so'm), Yangiyer shahri (4 376,4 ming so'm) va Sirdaryo (4 086,4 ming so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Sirdaryo viloyati	2 728,6	94,1
Guliston sh.	9 286,5	99,0
Shirin sh.	1 698,8	85,1
Yangiyer sh.	4 376,4	90,7
Boyovut	793,1	91,0
Guliston	890,8	86,9
Mirzaobod	2 430,1	93,7
Oqoltin	2 901,2	88,4
Sardoba	1 292,9	84,7
Sayxunobod	909,8	88,6
Sirdaryo	4 086,4	95,3
Xovos	745,1	88,5

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Dehqon bozorlari




Chorva (parranda) bozorlari


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar



Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 99 016,8 mln. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 60,0 % ga kamaydi. Shu jumladan, 1- bozor va 1- bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi 41 605,1 mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 50,9 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 57 411,7 mln. so'mni (o'zgarish sur'ati 34,6 %) tashkil etdi.

**UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI**

2020- yilning yanvar-avgust oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida 41 605,1 mln. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida 57 411,7 mln. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YTT)ni qo'shmagan holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mln. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mln. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mln. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Siirdaryo viloyati	99 016,8	40,0	41 605,1	50,9	54 411,7	34,6
Guliston sh.	24 767,1	90,4	22 748,3	99,0	18,7	0,4
Shirin sh.	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Yangiyer sh.	3 611,8	35,0	3 611,8	37,5	0,0	0,0
Boyovut	9382,3	40,5	2 735,5	36,1	6 646,8	48,9
Guliston	12 028,1	39,8	780,8	34,6	11 247,4	40,3
Mirzaobod	1 729,6	5,9	0,0	0,0	1 729,6	5,9
Oqoltin	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Sardoba	16 721,6	38,0	407,1	8,9	16 314,5	42,8
Sayxunobod	20 610,5	77,7	3 385,0	74,1	17 225,5	79,4
Sirdaryo	5 457,9	24,5	5 440,3	29,8	17,6	1,0
Xovos	4 707,8	13,9	496,3	11,3	4 211,5	14,5

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



692,0
mln. so'm

Tuzlamalar



753,3
mln. so'm

**Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**



68,0
mln. so'm

**Qurtilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari**
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

521,5
mln. so'm



**Non va non
mahsulotlari**



348,3
mln. so'm

**Sut va sut
mahsulotlari**

45,1
mln. so'm



Tuxum

595,5
mln. so'm



**Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)**

1,9
mln. so'm



**Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-xashaklar**

2020- yilning yanvar-avgust oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuv o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 41 605,1 mln. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (753,3 mln. so'm) to'g'ri keldi.

72,1
mln. so'm



Ziravorlar

250,4
mln. so'm



Tovuq go'shti

3,1
mln. so'm



**Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)**

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI

2020-yilning yanvar-avgust oylarida Viloyatning barcha shahar va tumanlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 57 411,7 mln. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi 1 941,8 mln. so'mni, qo'y va echkilar 515,8 mln. so'mni, otlar 241,5 mln. so'mni, parrandalar 79,1 mln. so'mni, tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:



ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Kichik tadbirkorlik subyektlari

Viloyat bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 1281,1 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 19,6 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi 206,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 50,5 %), kichik tadbirkorlik subyektlarining savdo tovar aylanmasi 1074,3 mlrd. so'mni (9,3 % ga kamayish) tashkil etdi.


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Kichik tadbirkorlik subyektlari

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi




Eng yuqori ulushga ega hududlar



**ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**



Ulgurji savdo tovar aylanmasida o'tgan yilga nisbatan yuqori o'sish sur'atlariga ega hududlar, Shirin shahri (106,4 %) Oqoltin tumani (105,8 %), Yangiyer shahrida (105,6 %) kuzatildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik tadbirkorlik subyektlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Sirdaryo viloyati	1281,1	80,4	206,8	50,5	1074,3	90,7
Guliston sh.	450,4	95,2	59,7	110,0	390,8	93,2
Shirin sh.	224,4	106,4	0,0	61,6	224,4	106,4
Yangiyer sh.	46,1	105,6	0,0	0,0	46,1	105,6
Boyovut	36,0	41,1	27,0	34,3	9,0	102,1
Guliston	41,7	80,8	9,1	48,5	32,6	99,2
Mirzaobod	85,6	73,5	10,2	53,1	75,4	77,5
Oqoltin	33,4	105,8	21,1	110,8	12,2	92,2
Sardoba	29,7	43,7	27,4	41,7	2,3	105,5
Sayxunobod	57,1	47,4	29,8	31,6	27,3	104,9
Sirdaryo	237,4	71,1	12,3	37,8	225,1	74,7
Xovos	39,3	69,6	10,2	37,8	29,1	98,6

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, 1074,3 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 9,3 % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 83,9 % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiyer shahri (100,0 %), Shirin shahri (100,0 %), Guliston shahri (86,7 %), Sirdaryo (94,8 %), Guliston (78,2 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Sardoba (6,7 %) tumaniga to'g'ri keldi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi
bo'limi**
Tel.: (67) 225-19-70